ISSN 2181-8258
DOI prefiksi:10.69691

# Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

# TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

8 (59)
2024

23.00.00 - “SIYOSATSHUNOSLIK”

**Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna.** O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar ifodasi..................................78

10.00.00 - “FILOLOGIYA”

**Асқарова Шахноза Камолидиновна.** “Алпомиш” достонида лексик-семантик гуруҳларнинг таҳлили масалалари.......................................19

**Rahmonova Surayyo Ne’matovna.** Meronimlarning tematik tasniflash masalalari..................................................................................23

**Nabiyeva Nodira Saidovna.** O‘zbek mumtoz shoiralari ijodida ishq mavzusi talqinlari.............................................................................26

**Egamkulova Gauxar Mustafayevna.** Jirovlar poeziyasida tarixiy voqelik.................................................................................................37

**Anvarova Farangiz Anvarovna.** Dan Braunning “Farishtalar va iblislar” asarida uchraydigan ba’zi lingvokulturemalarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi xususida..........................................................................................................................................................41

**Aqmanova Shahnoza Alimboyevna.** Xorazm viloyati gidronimlarining struktur tadqiqi.............................................................................52

**Xasanova Saodat Qayimovna.** Rus tilshunosligida nisbat kategoriyasining o‘rganilishi..............................................................................56

**Джуманиязова Интизор Давлатназар кизи.** Корпусная лингвистика как новейшее направление в языкознании..........................................65

**Xudayberganova Munira Safarboy qizi.** Lingvistik terminlar tezaurusini yaratishning leksikografik tadqiqi..............................................72

**Yulduz Mo‘minova Aminboyevna.** Rang bilan bog‘liq frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari..........................................75

**Xaytbayev Oybek.** Hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq adabiy tillaridagi ikki komponentli fe’l frazemalar.......................................................86

**Нурыллаев Хамза Худойбергaнович.** *Лингвомаданиятшунослик жиҳатидан фразеологизмларнинг назарий асослари*.............................98

**Ostonov Utkir Yangiboyevich.** Qishloq xo‘jaligi va qishloq turizmida terminologik tushunchalarning ta’rifi va shakllanishi.....................................110

**Zohidova Sevara A’zamjon qizi.** Ingliz va o‘zbek tillarida fitonim komponentli frazeologik birliklarning kontekstual tahlili.....................................129

**Primov Azamat Iskandarovich.** “Zafarnoma” asarining eski o‘zbek adabiy tiliga tarjimasidagi harakat bildiruvchi so‘zlarning semantik xususiyatlari haqida..........................................................................................................................................................139

**Buzrukova Maxina Muxamadxonovna.** Xalqaro turizm diskursiga oid terminlar tarjimasi muammosi.................................................142

**Xudayberganova Munira Safarboy qizi.** Lingvistik terminlar tezaurusini yaratishning leksikografik tadqiqi..........................................147

**Nematova Surayyo.** Tarjimada realiyalarning ahamiyati..........................................................................................................156

**Xudayberganova Dildora Kulmamatovna.** Badiiy matnda kirish va kiritmalarning qo‘llanishi (Tohir Malikning “Shaytanat” asari misolida).........159

**Abdullayeva Umida Raxmatovna.** Charlz Dikkensning “Oliver Tvistning sarguzashtlari” asarining kompozitsion tahlili.......................................163

**Gulimmetova Saodatjon Samandar qizi.** Shahodat Isaxonova hikoyalarida milliy mentalitetimizga xos jihatlarning aks etishi............................177

**Raximova Norjongul Mahsud qizi.** Fanda o‘zbek tili teonimlarining tadqiqi masalasi..............................................................................195

**Исаева Гулнара Абдукадыровна.** Место образных средств в реализации темы войны..................................................................213

**Abduhamid Xolmurodov.** Badiiy asarda qissanavis obrazi.........................................................................................................234

**Mangitbaeva Zayfun Uzaкbaevna.** Ko‘p komponentli murakkab gaplarni o‘rganishning nazariy asoslari...................................................258

**Niyazova Feride Seyful qizi**. O‘zbek tilining umumiy va maxsus lug‘atlarida pedagogika terminlarining ifodalanishi.................................261

**Mamanabiyeva Shaxrizoda Sharofidin qizi.** Amerika adabiyotida obraz tasvirining ifodalanishi.............................................................287

**Hamidova Farida.** Chet tillarni fan sifatida o‘qitish metodikasi......................................................................................................290

**Farruh Usmanov.** Zamonaviy tilshunoslikda frazeologiyaning nazariy ta’siri.......................................................................................294

**Baxtiyorova Gulshoda Jo‘rabekovna.** Asqar Mahkam ijodida hayot falsafasi...........................................................................................298

**Kadirova Shokhsanam Boboxon qizi**. Nemis tilida otlarning semantik tizimidagi ma’no munosabatlari.......................................................301

**Tursunmurodov Shohruh Uralovich.** “Maxzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonlarining qiyosiy tahlili.................................................308

# MUNDARIJA

**07.00.00 - "TARIX"**


**Temirova Munira Amirkulovna.** Simobkoʻzachalar va aniq fanlar oʻrtasidagi ilmiy xulosalar....9

**Boboxoʻjayev Ilhom Sultonovich.** Turkiy xalqlarning tabiat kultlariga munosabati....12

**Улжаев Умарали Қурбонович.** Абу Жаъфар Термизийнинг ҳадис ривоятида тутган ўрни....29

**Қурбонов Абдуллажон Атаназарович.** Хоразм воҳаси илк ўрта асрларда кечган сиёсий муносабатлар тарихига доир мулоҳазалар....89

**Асхат Бийкузиев.** Юе - чжиларнинг марказий осиёга жойлашуви ҳамда ўтроқ ва кўчманчи аҳоли вакилларининг ўзаро муносабатлари тарихидан....136

**Norqoʻchqarov Xushvaqt Eshnazarovich.** Ilk oʻrta asrlarda hozirgi Afgʻoniston hududlarida xioniylar va eftaliylar masalasi....152

**Вахабов Азизжон Хамидович.** Археологические исследования Хонако Сайфутдина Бохарзи в Бухаре....168

**Ismailov Gʻafurjon Xasanovich.** Buxoro amirlari va amaldorlarining Rossiyadagi bunyodkorlik ishlari....180

**Ҳайдаров Зуҳриддин Рабиевич.** Ўзбекистонда совет даври меъморчилиги ва қурилиш маданиятининг ўзига хос хусусиятлари....192

**Абдуллаев Музаффар Атажанович.** XXI аср бошлари маҳаллий тадқиқотларида қорақалпоқ этнографияси масаласи (2000-2001 йиллар мисолида)....218

**Tadjiyeva Feruza Jumabayevna.** Xiva xonligi hayotida masjidlarning oʻrni va roli....223

**Toshev Solejon Ahmatjonovich.** Oʻzbekiston tarixini oʻrganishda тurkiya ilmiy markazlari va turk matbuotining oʻrni....317

**Karimov Yusufjon Sherali oʻgʻli.** Xalq tabobatini rivojlantirishda dorivor oʻsimliklarning ahamiyati....321

**Karimov Sarvarbek Otabayevich.** Quyi amudaryo ilk oʻrta asr jamiyati taraqqiyotida qishloq jamoalarida kechgan tarixiy jarayonlar sahifasi....329


**09.00.00 - "FALSAFA"**


**Atakulov Mavlonbek Saitkulovich.** Yoshlarda sogʻlom tafakkur madaniyatini shakllantirishda mahalla va taʼlim tizimining roli....16

**Ibragimov Begzod Taxirjonovich.** Abu Rayhon Beruniy qarashlarining falsafiy tafakkur rivojlanishidagi ahamiyati....33

**Shamsiddinova Madinabonu Shuxrat qizi, Mahmudova Aziza Nugmanovna.** Tibbiyotda deontologiya va bioetikaning dolzarb muammolari....93

**Eronov Samarbek Qurbonnazarovich.** Insonning yuksak maʼnaviy uygʻunlikka erishishida ishonch, eʼtiqod va imon tushunchalarining oʻrni....102

**Sulaymonov Maxmudjon Shuxratbekovich.** Fuqarolik pozitsiyasini oʻrganishning nazariy-metodologik muammolari....105

**Adilov Zafar Yunusovich.** Az-Zamaxshariy yashagan davrdagi ijtimoiy- maʼnaviy muhitning falsafiy tahlili....132

**Гафуров Бахром Адхамович.** Вопросы социальной политики и защиты населения в Индийском государстве Мирзо Бабура....172

**Masharipov Xushnud Mirzaboyevich.** Vatanparvarlik fenomenining ijtimoiy-falsafiy tahlili....184

**Ulugʻmurodov Elyor Saydulloevich.** Kalom falsafasida alloh sifatlarining ratsional tahlili....189

**Ochilova Maftuna Shuxratovna.** Alisher Navoiy "Arbain" asarining falsafiy tahlili....199

**Mehmet Münir Dədəoğlu.** Füzuli Şeirindəki bəzi məzmunların Asketizm Baxımından fəlsəfi təhlili....202

**Кодирова Муаттар Ганижоновна.** "Маноқиби ҳазрати ғавс ул-аъзам" асари хусусида....227

**Jumayev Bahrom Panjiyevich.** Tarixiy xotiraning subyektiv voqeligi va uni obyektivlashtirish zaruriyati....250

**Qosimov Xamidullo Abduqaxxor oʻgʻli.** Milliy anʼanalarning inson maʼnaviyati yuksalishiga taʼsiri....255

**Zebo Allayorova.** Oʻzbekistonda "oʻzbek tili" va "davlat tili" tushunchalari hamda ular aloqadorligining ijtimoiy-falsafiy tahlili....264

**Maxmut Mamatov.** Maʼnaviy taraqqiyot: barkamol avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy mezonari....268

**Худайберганова Маржан Балтабаевна.** Мутолаа ва китобхонликни тарғиб қилишнинг баъзи устувор масалалари....271

**Bekmurodova Gulshoda Hayitovna.** Ijtimoiy destruksiya: mazmuni va xususiyatlari, sabablari va oqibatlari....274

**Toʻxtayev Hakim Primovich.** Qadriyatlar sohasi va aksiologiya qonunlari transformatsiyasining ijtimoiy taraqqiyotga bogʻliqligi....278

**Matvapayeva Nasiba Gʻayratovna.** Xorazmda Koreys diasporasi: tarix va bugun....312

**Mirzayeva Barnoxon Adxamovna.** Zoʻravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga doir qarashlar....325

Qabul qilindi: 05.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024 UDK: 801.82.19

# O‘ZBEK MUMTOZ SHOIRALARI IJODIDA ISHQ MAVZUSI TALQINLARI



**Nabiyeva Nodira Saidovna**
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

# ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕМЫ ЛЮБВИ В ТВОРЧЕСТВЕ УЗБЕКСКИХ КЛАССИЧЕСКИХ ПОЭТОВ

**Набиева Нодира Саидовна**
Денауский институт предпринимательства и педагогики
Преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы

# INTERPRETATIONS OF THE THEME OF LOVE IN THE WORKS OF UZBEK CLASSICAL POETS

**Nabieva Nodira Saidovna**
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Teacher of the Uzbek language and literature department

Tel:+99891-589-70-99
E-mail: saidovnanodira9@gmail.com
Orcid: 0009-0004-9300-0604

**Annotatsiya:** Hayotiy tajribaga tayanib shuni ta’kidlash mumkinki, insonlar bir-birlariga muhabbat bog‘lab, samimiy aloqaga kirishgan vaqtlarida ehtirosli muhabbat ustun keladi, asta-sekin u do‘stlik muhabbatga, keyin esa muhabbat hurmatga o‘sib o‘tadi, degan ma’noni anglatadi, deyish mumkin. Bahor qanchalik tarovatli va go‘zal bo‘lmasin, lekin gul-chechaklarning chaman bo‘lib ochilishi, bulbullarning xonishi, osmonning musaffoligi, suvning zilolligi abadiy davom etishi mumkin emas. Tabiatdagi sevgining butun go‘zalligi shunchaki bir chiroy bo‘lmay, balki hayotni qaytadan tiklash uchun bir vositadir.

**Kalit so‘zlar:** Publitsistik lirika, intim lirika, simvolik-ramziy lirika, hajviy lirika, “falsafiy she’riyat”, “fikriy she’riyat”, “meditativ lirika”, “emotsional-intellektual lirika”, “ijroviy lirika”, “ayollar she’riyati”.

**Аннотация:** На основании жизненного опыта можно отметить, что когда люди влюбляются друг в друга и вступают в искренние отношения, преобладает страстная любовь, постепенно она переходит в дружескую любовь, а затем любовь перерастает в уважение. Как бы ни была свежа и прекрасна весна, цветение цветов, щебетание соловьев, чистота неба и прозрачность воды не могут длиться вечно. Вся красота любви в природе – это не просто красота, а средство восстановления жизни.

**Ключевые слова:** публицистическая лирика, интимная лирика, символически-символическая лирика, комическая лирика, «философская поэзия», «мысленная поэзия», «медитативная лирика», «эмоционально-интеллектуальная лирика», «исполнительная лирика», «женская поэзия».

**Abstract:** Based on life experience, it can be noted that when people fall in love with each other and enter into a sincere relationship, passionate love prevails, gradually it turns into friendly love, and then love grows into respect. No matter how fresh and beautiful the spring is, the blooming of flowers, the twittering of nightingales, the purity of the sky and the transparency of the water cannot last forever. All the beauty of love in nature is not just beauty, but a means of restoring life.

**Keywords:** journalistic lyric, intimate lyric, symbolic-symbolic lyric, comic lyric, «philosophical poetry», «thoughtful poetry», «meditative lyric», «emotional-intellectual lyric», «executive lyric», «women's poetry».

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Insoniy sifatlar, fazilatlar, qusurlarning barchasi ularning tabiatiga xos. Shu jumladan, insoniy ishq ham unga xos va mos. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Ishq” so‘ziga shunday ta’rif berilgan: “Sevgi, muhabbat, oshiqlik, xushtorlik. 1. Boshqa jinsdagi shaxsga berilish, intilish (moyillik) his-sezgisi”. “Ishqiy” so‘ziga esa shunday ta’rif berilgan: “Ishq-muhabbatga oid; ishqni ifodalovchi”. Demak, borliqda ikki jins vakili mavjud ekan, ular o‘rtasida bir-biriga intilish mayllari ham mavjud bo‘lishi tabiiy hol. Hayot odamlarning bir-birlariga muhabbatlari bilan nihoyatda go‘zal [6]. Endi uning yoniga muhabbatni tarannum etuvchi she’riyatni qo‘shsak, olam yanada go‘zallashishi haqiqat. “She’r un cheksa shoirning armoni sabab bo‘lgay” deb yozganida Abdulla Oripov haq edi. Asrlarni yig‘latgan sevgi hamisha navqiron va qadimiydir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** O‘zbek mumtoz shoiralari ijodida ham ishq mavzusi avj pardalarda kuylanganligi bilan ular adabiyot tarixida katta o‘rinni egallaydi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul- muhabbat”, “Xamsa” dostonlari “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin” dostonlarida ayollarga alohida ehtirom ko‘rsatilganligi ma’lum. Ma’rifatli ayollar jamiyatning, oilaning ko‘rki, fayzi ekanligi xususida fikrlar bayon etilgan. Lekin o‘zbek adabiyotshunosligida ayol ijodkorlar haqida maxsus asar yaratilgani yo‘q. Biz mumtoz shoiralar haqida faqatgina tazkiralardangina ma’lumot olishimiz mumkin. Ana shunday tazkiralardan mashhuri 1554-1555-yillarda yozilgan Faxri Xiraviy qalamiga mansub “Javohir ul-ajoyib” tazkirasidir. Debocha va asosiy qismdan tashkil topgan ushbu tazkirada jami bo‘lib 31 nafar ayol shoiralar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, “Tazkirat ul-xavotin” tazkirasida jami 286 nafar, “Tazkirat un-niso” tazkirasida jami 140 nafar ayol ijodkorlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Ulug‘ Navoiy insonni barcha mavjudotning eng “sharifi” deb ataganida, Sharqning buyuk donishmandi Mirzo Bedil odamizotni ardoqlab “Hazrati inson” deganida, ayol zotini ham nazarda tutganligi mutlaq haqiqat. Insonning juftlikka mayli, faqat jinsiy burchning ijrosi emas. Juftlikka intilishni bu ma’noda tushunsak, odam bilan hayvon o‘rtasida farq qolmas edi [3]. Juftlikdan ma’ni faqat muqobil jinslarning qo‘shiluvi bo‘lsa, inson hayoti nursiz, o‘ta qashshoq, fayzsiz bo‘lar edi. Insonning juftlikka mayli zamirida hayotning bardavomligi mavjud: bu mayl zamirida Ollohning benazir in’omi –ishq bor. Ishq – insonning ko‘rki, bezgi va umrining mohiyatidir. Insonning sharifligi uning fazlu kamolida, zakovatida, iste’dodida, lutf-karamida, vafosida, qalb go‘zalligida, chiroyida, ishq-muhabbatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun adabiyotning, xususan, ko‘ngil rozlarini kuylovchi she’riyatning bosh mavzusi ishq o‘zbek shoiralari ijodida zavq-shavq bilan tarannum etiladi [4].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Milliy she’riyatimiz takomilida mumtoz shoiralarning o‘rni benihoya kattadir. Boburning chevarasi hassos shoira Zebunnisobegim, Jahon Otin Uvaysiy, Mahzuna, Nodirabegim, Anbar Otin, Dilshodi Barno kabi shoiralar shular jumlasidandir. “O‘tmish sharqida Robiya va Mahatsiydan boshlab, Zebunniso va Nodiragacha, Uvaysiy va Mahzunadan Dilshod va Anbar Otingacha qanchadan-qancha zukko shoiralar yashab ijod etganlar. Ularning yurak nidolarida ming yillarning shodlik va nolalari, kurash va orzulari bor”. Bugungi o‘quvchi o‘zbek adabiyoti tarixidagi ayollar she’riyati vakilalarini ko‘pchiligni yaxshi biladi [2].

Adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Uvaysiy hayoti va ijodi bir qadar o‘rganilgan. T. Jalolovning “O‘zbek shoiralari”, A.Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti”, F.Namangoniyning “Majmuayi shoiron” tazkirasi, I.Adizovaning “Uvaysiy she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi” nomli tadqiqotlarida shoira ijodi turli rakurslarda tahlilga tortilgan. Uvaysiy tom ma’noda, “mohir g‘azalnavis –lirik shoiradir. U ruhiy kechinmalar, his-hayajonlar, nozik kayfiyatlarni darhol his etuvchi –tuyg‘un shoiradir”. Darhaqiqat, shoira she’rlarini tahlilga tortar ekanmiz, ularda davr muammolari, o‘sha zamon ayollarining dard-iztiroblarini dardli ohanglarini his etamiz. “Zamona kulfatidan ko‘ngli dog‘ o‘lgan”, bag‘ri “tig‘i bedod” raqiblardan jarohat olgan hassos qalb sohibasining she’riyati qanchalik dardli bo‘lmasin, unda ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Shoiraning g‘azallarida insoniy muhabbat ulug‘lanadi. Xotin-qizlarga sevish, uni tan olish, izhori dil qilish katta gunoh

hisoblangan, bunga yo‘l berilmagan zamonda ayol shoiraning ishqini oshkora ayta olishi, kuylashi katta jasorat bo‘lgan:

*Bir pari paykar sumanbar yora oshiq bo'lmisham,*
*La'li dilkash, so'zi xush, dildora oshiq bo'lmisham.*
*Maddi ohim ko'kdadur, sorig' yuzimga ashik ol,*
*Ul qadi ra'no, yuzi gulnora oshiq bo'lmisham.*

O‘z davrining oqila ayoli bo‘lgan Uvaysiy she’riyatining bosh mavzusi ishq. Uning oshiqona ruhdagi g‘azallarini kuzatganimizda, unda lirik qahramon oshiq qiyofasida bo‘y ko‘rsatadi. Hayotda qanchalik qiyinchiliklarga uchrasa ham o‘z tanlagan yo‘lidan sira chekinmaydi, olg‘a qarab harakat qilaveradi:

*Muhtasibi ishq aylabdur jahon ovvorasi,*
*Ul sababdur ro'zg'orim birla baxtim qorasi,*
*Ko'ying ichra itlaringning manduman bechorasi,*
*Sen erursan doimo bechora ko'nglum chorasi,*
*Jismu jonim ostoni dargahing tuprog'idur,*
*Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog'idur.*

G‘azalni o‘qir ekanmiz unda mardona qalbli chin oshiq siymosini ko‘ramiz [5].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Ijodkorga mavzu va materialni ham, fikr va g‘oyani ham, obraz va tasviriy vositalarni ham, ruhiy parvoz va ilhomni ham – barchasini hayotning o‘zi beradi, ammo bularni badiiy haqiqatga aylantirish faqat shoirning shaxsiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Badiiy ijoddek o‘ta shaxsiy, o‘ta individual, sirli hodisa yo‘q. Iste’dodning yarqirashi uchun muhit katta ahamiyatga ega. Nodira ana shunday iste’dodini yarqiratadigan ijodiy muhitda yashadi. Shuning uchun uning she’riyati asrlar oshsa-da yashovchandir [7].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Muqaddas dinimizda ham ayol zotiga alohida ehtirom ko‘rsatilgan. “Qur’on”da “Niso” surasining mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. “Niso” degani “ayollar” degan ma’noni bildiradi. Mazkur surada ayolning jamiyatdagi o‘rni, roli, haq-huqqulari, burch va majburiyatlari aks etgan. Olloh, birinchi navbatda, ayolga onalik maqomini yuklagan. Onalik maqomi eng ulug‘, eng sharafli, eng mas’uliyatli vazifa hisoblanadi. Ayol – ona, ayol – farzand, ayol – jufti halol, ayol – opa-singil singari maqomlarda turadi. Shunday ekan, ayolning jamiyatda xizmatlari ulug‘. Muborak hadislarda “Ilm talabi har bir musulmon uchun farzdir” deya erkak hamda ayollarning ilm olishlari farz qilib qo‘yilgan. Shuningdek, ayol ayol hamdir. Uning go‘zal qalbi, nozik ko‘ngli bor. U sevishga, sevilishga haqli. Ayol ilk aytgan allasidan boshlab o‘z ko‘ngil kechinmalarini qo‘shiq, she’r shaklida izhor qiladi, nozik iqtidorini namoyish etadi.

**ADABIYOTLAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Словарь литературоведческих терминов / Редактори-составители: Л.И.Тимофеев, С.В.Тураев. – М.: Просвещение, 1974. – С. 175.
2. Гинзбург Л. О лирике. – М.-Л., 1964. - С. 44-62; Гринберг Л. Три грани лирики. Современная баллада, ода и элегия. Издание второе. – М: Художественная литература, 1985. - С. 142-254; Поспелов Г.Н. Лирика среди литературных родов. – М.: Изд. Московского университета, 1976. – С.62-85.
3. Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964. – С. 173-237.
4. Шукуров Н., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Маҳмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 181.
5. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Маданият ва санъат институтлари талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 209.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, “Akademnashr”, – Toshkent: 2013. – B.120.
7. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” NM1U, 2005. – B.173.
8. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 88.